PRESS-RELIZ **28.10.2026**

Samarqand viloyatida maktabgacha va maktab ta’limi: 2026-yilning 9 oylik hisoboti

Samarqand viloyatida 2026-yilning yanvar–sentabr oylarida maktabgacha ta’lim qamrovini kengaytirish, umumiy o‘rta ta’lim sifatini oshirish, pedagoglar salohiyatini mustahkamlash hamda ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash yo‘nalishlarida qator ishlar amalga oshirildi.

Ta’lim tashkilotlari soni va qamrov ko‘rsatkichlari

Hozirgi kunda Samarqand viloyatida jami 5 662 ta ta’lim tashkiloti mavjud. Shundan 4 007 tasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari, 1 359 tasi umumta’lim tashkilotlaridir.

Viloyatdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘i quyidagicha shakllangan:

779 ta davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti;

171 ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta’lim tashkiloti;

64 ta nodavlat (xususiy) maktabgacha ta’lim tashkiloti;

2 989 ta oilaviy maktabgacha ta’lim tashkiloti;

4 ta tashkilotga qarashli maktabgacha ta’lim tashkiloti.

Viloyatda maktabgacha yoshdagi 409 580 nafar bolaning 281 113 nafari maktabgacha ta’lim bilan qamrab olingan. Bu umumiy bolalar sonining 68,6 foizini tashkil etadi.

2026-yilda 238 ta yangi maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, 2 ta davlat, 12 ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi va 223 ta oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan muassasalar va qo‘shimcha quvvatlar hisobiga yana 13 500 nafar bolani maktabgacha ta’limga jalb etish imkoniyati yaratildi.

Joriy yilda Samarqand shahrida 180 o‘rinli 82-sonli, Каттақўрғон тумани 60 ўринли 71-сонли davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti hamda jami 1 305 o‘rinli 12 ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘z faoliyatini boshladi.Umumiy o‘rta ta’lim: 1 359 ta tashkilot, 817 mingdan ortiq o‘quvchi

Samarqand viloyatida jami 1 359 ta umumta’lim tashkiloti faoliyat yuritmoqda.

Ularning tarkibi quyidagicha:

- **1 280 ta umumta’lim maktabi;**
- **58 ta nodavlat maktab;**
- **20 ta ixtisoslashtirilgan maktab;**
- **1 ta Prezident maktabi.**

Ushbu ta’lim tashkilotlarida jami 817 885 nafar o‘quvchi tahsil olmoqda. Shundan 798 900 nafari umumta’lim maktablarida, 11 650 nafari nodavlat maktablarda, 7 169 nafari ixtisoslashtirilgan maktablarda va 166 nafari Prezident maktabida ta’lim oladi.

Maktablarning umumiy quvvati 662 ming o‘rinni tashkil etadi. O‘quvchilar soni va mavjud quvvatlar nisbati bo‘yicha maktablar faoliyatining o‘rtacha koeffitsiyenti 1,2 ga teng.

Pedagoglar salohiyati va kasbiy rivojlanish

Viloyat maktablarida jami 64 008 nafar pedagog faoliyat yuritmoqda. Ularning 7 720 nafari oliy toifali, 12 124 nafari birinchi toifali, 14 512 nafari ikkinchi toifali, 22 184 nafari mutaxassis toifasidagi o‘qituvchilar hisoblanadi.

Pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish maqsadida malaka oshirish va kasbiy rivojlanish tadbirlari tashkil etildi. 2026-yil oktabr holatiga ko‘ra, 10 682 nafar rahbar va pedagog malaka oshirish kurslarida ishtirok etdi. Shundan 9 112 nafari maktablar, 1 570 nafari esa maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlaridir.

«Kasbiy rivojlanish kuni» va «Kasbiy rivojlanish soati» tadbirlariga jami 51 752 nafar pedagog jalb etildi.

Xorijiy tillarni o‘qitish sifatini oshirish yo‘nalishida viloyatdagi 6 369 nafar xorijiy til o‘qituvchisining 4 479 nafari, ya’ni 76,7 foizi IELTS, CEFR sertifikatlari va ustama olish huquqini beruvchi tegishli hujjatlarga ega bo‘ldi.

Shuningdek, viloyat maktablariga 246 nafar xorijiy o‘qituvchi jalb qilindi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 14 663 nafar pedagogning oylik ish haqi 6 million so‘mdan yuqori. 2026-yil sentabr oyida Vazir jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 181 nafar o‘qituvchiga ustama to‘landi.

Ta’lim sifati va o‘quvchilar yutuqlari

O‘tgan o‘quv yilida viloyat maktablarini 51 216 nafar o‘quvchi tamomladi. Ularning 26 632 nafari, ya’ni 52 foizi oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirdi. Bitiruvchilarning davlat oliy ta’lim muassasalariga kirish ko‘rsatkichi 28 foizni tashkil etdi.

Dunyoning yetakchi xorijiy universitetlariga muddatidan oldin o‘qishga qabul qilingan o‘quvchilar soni 300 nafarni tashkil etdi. Shuningdek, 1 755 nafar o‘quvchi milliy va xalqaro sertifikatlarga ega bo‘ldi.

Joriy yilda 350 ta maktab yangi baholash tizimiga o‘tkazildi. Ushbu maktablarda o‘quvchilarning o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 74,4 foizni tashkil etdi.

Asosiy fan olimpiadasining respublika bosqichida viloyatdan 57 nafar o‘quvchi ishtirok etib, 7 ta o‘rinni egalladi. Umumjamoa hisobida Samarqand viloyati 3-o‘rinni qo‘lga kiritdi. Xalqaro matematika olimpiadasida esa viloyat o‘quvchilari 1 ta oltin va 2 ta bronza medaliga sazovor bo‘ldi.

Inklyuziv ta’lim va o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash

Viloyatda 446 ta maktabda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan 1007 nafar o‘quvchi 559 ta inklyuziv sinfda ta’lim olmoqda.

Shuningdek, 667 ta maktabda 1 594 nafar o‘quvchiga uyda yakka tartibda ta’lim berish tashkil etilgan.

O‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida 30 ta maktabda variativ sinflar tashkil etildi. Ularda 2 238 nafar o‘quvchi, 25 ta maktabdagi tanlov sinflarida esa 2 510 nafar o‘quvchi tahsil olmoqda.

To‘garaklar, sport va raqamli ta’lim

Viloyat maktablari hamda «Kelajak» markazlarida 9 ta yo‘nalish bo‘yicha 898 ta to‘garak tashkil etilgan. Ushbu to‘garaklarga 18 702 nafar o‘quvchi jalb qilingan.

Bundan tashqari, umumta’lim maktablarida 5 810 ta sport to‘garagi faoliyat yuritib, ularda 128 921 nafar o‘quvchi shug‘ullanmoqda.

Viloyatdagi 1 280 ta umumta’lim maktabida jami 1 874 ta informatika sinf xonasi mavjud. Ularning 1 696 tasi zamonaviy kompyuter texnikasi bilan ta’minlangan.

O‘quvchilarning innovatsion loyihalar va axborot texnologiyalari sohasidagi yutuqlari ham e’tiborga molik. Payariq tumanidagi 102-maktabning 10-sinf o‘quvchisi Xurshid Yangibayev xalqaro xakatonda 3-o‘rinni egalladi. Samarqand tumanidagi 9-maktab o‘quvchilari Rayhona Shamsiddinova va Shahpибonu Bahodirova «Startup Fest Samarkand 2026» festivalida o‘zlarining C2E loyihasi bilan 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

«Besh million sun’iy intellekt yetakchilari» tanlovida viloyatdan 10 nafar o‘qituvchi taqdirlandi. Ularning 7 nafariga 1 000 AQSh dollari, 1 nafariga xorijga chiqish yo‘llanmasi va 2 nafariga noutbuk berildi.

Qurilish-ta’mirlash va moddiy-texnik bazani mustahkamlash

2026-yilgi davlat dasturlari doirasida viloyatdagi 205 ta obyektda, jumladan, 138 ta maktab va 67 ta maktabgacha ta’lim tashkilotida jami 899 milliard so‘mlik qurilish-ta’mirlash ishlari rejalashtirildi.

Taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, umumiy rejaning 96,6 foizi, ya’ni 868,8 milliard so‘mlik qismi bajarildi. Jami 154 ta obyekt to‘liq foydalanishga topshirildi.

«Yagona buyurtmachi xizmati» orqali mebel bilan ta’minlash dasturi doirasida xatlovga kiritilgan 83 ta maktabdan 60 tasiga jihozlar to‘liq yetkazib berildi. Biroq jihozlarni yig‘ish va o‘rnatish ishlarini yakunlash, shuningdek, qolgan maktablarni mebel bilan ta’minlash bo‘yicha ishlar davom ettirilmoqda.

Kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik doirasida 190 ta muassasada tegishli ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirga qadar 21 ta muassasa mavsumga to‘liq tayyor holatda topshirilgan. Rom va oynalarni almashtirish ishlari rejaning 27 foizini tashkil etdi.

Maktab va bog‘chalarga rejalashtirilgan 57 766 tonna ko‘mir to’liq yetkazib berildi.

Kasbga yo‘naltirish va yoshlar bandligi

Maktab bitiruvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish, tadbirkorlikka qiziqishini qo‘llab-quvvatlash va ularning kelgusida mustaqil hayotga tayyorgarligini kuchaytirish maqsadida 615 nafar bitiruvchi 436 nafar tadbirkorga ustoz-shogird an’analari asosida biriktirildi.

Shuningdek, «Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik» jamg‘armasi hamda tuman va shahar mahalliy budjetlarining 2026-yil II chorak daromadlar rejasini ortig‘i bilan bajarish natijasida shakllangan mablag‘lar hisobidan ta’lim sohasiga 10 milliard 349 million 320 ming so‘m mablag‘ ajratildi.

Kelgusi vazifalar

Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi oldidagi ustuvor vazifalar maktabgacha ta’lim qamrovini yanada kengaytirish, ta’lim sifatini oshirish, pedagoglarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, iqtidorli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash, inklyuziv ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish hamda ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashdan iborat.

Ta’lim muassasalarini kuz-qish mavsumiga to‘liq tayyorlash, mebel va jihozlarni yetkazib berish hamda o‘rnatish ishlarini yakunlash ham muhim vazifalar qatorida qolmoqda.

Samarqand viloyatida maktabgacha va maktab ta’limi tizimini izchil rivojlantirish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish hamda har bir bola

uchun munosib ta’lim sharoitlarini yaratishga qaratilgan ishlar davom ettiriladi.